

## OTAMDEK, ONAMDEK AZIZSAN VATAN!

**Sharipov Azamjon Axmadjonovich**

*O'zbekiston Milliy Universiteti Harbiy tayyorgarlik  
o'quv markazi o'qituvchisi*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Vatan tuyg'usi va vatanga bo'lgan muhabbat, vatanvarlik e'tiqodi, milliy o'zlikni anglash kabi tuyg'ular keng yoritilgan. Vatan tuyg'usi va vatanparvarlik e'tiqodi shaxsning eng muhim ma'naviy boyligi bo'lib, uning rivojlanishi eng yuqori pog'onasini tavsiflashi ko'rsatib berilgan.

**Kalit so'zlar:** vatan tuyg'usi, ona zamin, vatanparvarlik, ajdodlarimiz.

O'zbek xalqi bir umr orzu qilib kelgan mustaqillika osonlikcha erishmadi, mustaqillikka erishish o'zbek xalqining o'tmishda necha-necha yillar orzusi bo'lib kelgan edi. Va nihoyat, 1991-yil Vatanimizda nurafshon tong otdi, O'zbekiston o'z mustaqilligiga erishdi. Bu o'z navbatida bizga o'z taqdirimizni o'z qo'limiz bilan yaratish, o'z salohiyatimizni har tomonlama namoyon etish, o'zimiz tanlagan yo'ldan aniq maqsad sari borish kabi imkoniyatlarni berdi. Bugungi kunda O'zbekistonning dunyoda o'z o'rni, ovozi bor. Mana shu qisqa davr ichida, milliy qadriyatlarimiz va an'analarimizga munosabat butunlay o'zgardi, milliy urf-odatlarimiz va bayramlarimiz qaytadan tiklandi, qishloq va shaharlarning qiyofasi tanib bo'lmas darajada o'zgardi. Zamonaviy uslubdagi ilm dargohlar, tadbirkorlar tomonidan madaniy-maishiy ob'ektlar, to'yxonalar, mehmonxonalar, madaniyat va sport koshonalari yangidan qurildi. Ayniqsa, kam ta'minlangan oilalar uchun arzon uylar, vatanimiz posbonlari uchun yangi uslubdagi turar joylarning qurilishi mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning barchasi inson manfaatlari uchun xizmat qilishidan dalolat beradi.

Vatanparvarlik tuyg'usi bu yoshlikdan inson xayoti faoliyati davomida shakllanadi. Insonning o'z Vatanini sevishi avvalo o'z oilasidan, yaqinlaridan boshlanadi. Dunyodagi eng ulug' va muqaddas so'z bu Vatandir. Vatan kishi faxrlanishi mumkin bo'lgan, yuragining tubidan joy olgan eng qimmatli narsadir. Vatan har bir

insonning tug‘ilgan diyori, kindik qoni to‘kilgan muqaddas tuprog‘idir. Inson dunyoga kelibdi-ki, “ona” so‘zini birinchi marta o‘z Vatanida tilga oladi. Vatan go‘dakligidan tetapoya qilib yurishni boshlaganda unga poyandoz bo‘lgan, bolaligida o‘ynab-kulib yurganda uning uchun keng dala, keksayganda esa unga panoh bo‘lgan muborak bir makondir. Vatan degan tuyg‘u har bir insonning qalbida mavjud. Shuning uchun ham inson zoti borki, o‘z Vatanini sevadi, uni hech qanday boylikka alishmaydi. Vatanning o‘zi qanchalik bebahbo bo‘lsa, u bilan bog‘liq tuyg‘ular ham shunchalik bebahodir. Vatan bilan bog‘liq bo‘lgan barcha narsa, uning havosi, suvi, mevalari, har bir qarich tuprog‘i, yeri biz uchun aziz va qadrlidir. Darhaqiqat, Vatan ne’mati buyuk ne’matdir. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev: “Har bir rahbar Vatanni sevishi, o‘zini qiynashi kerak” deb ta’kidlagan so‘zlarida vatanga bo‘lgan sadoqat, uni yaxshi ko‘rish va ko‘z qorachig‘iday asrab, kelajak avlodlarga ozod va obod holda yetkazish, uning rivoji va ravnaqi uchun bor imkoniyatlarni ishga solish har birimizning burchimiz ekanligini alohida ta’kidlaydilar<sup>1</sup>. Tarixdagи barcha buyuk insonlar, shoirlar, yozuvchilar, olimlar vatan tuyg‘usini tarannum etganlar, vatanlarini madh qilganlar. Dinimizning olижаноб ta’limotlari Vatanni sevishga, uni ardoqlashga, unga sadoqat ko‘rsatishga chorlaydi. Shayx Muhammad G‘azzoliy aytadilar: “Bashar o‘z yeriga, garchi u taqir sahro bo‘lsa ham qattiq bog‘lanadi. Vatanni sevish inson ruhiyatidagi asl tabiatdir. Ushbu tabiat Vatanda yashashda huzur halovat, undan uzoq bo‘linganda sog‘inch, hujum qilinganda mudofaa va kamsitilganda g‘azab hislarini paydo qiladi. O‘z Vatani, millati va ota-bobolariga mansublik his-tuyg‘usidan mahrum kishi ma’naviy majruh kimsadir.” Shubhasiz, Vatanni sevish hissi har bir insonning qalbida yashaydi. Shu bois ham kishi Vatanidan uzoqlashganda unga nihoyatda qattiq talpinadi, judolik alamidan o‘rtanadi va Vatani bilan bog‘liq bo‘lgan barcha narsani sog‘ina boshlaydi. Buyuk shoир, tarixchi, geograf, davlat arbobi, iste’dodli sarkarda, boburiylar sulolasи asoschisi, temuriylar hukmdorligining so‘nggi namoyondalaridan biri bo‘lgan Zahiriddin Muhammad Bobur o‘z yurtini tark etib, Afg‘oniston va Hindiston sari yuz tutganda o‘z she’riyatida Vatan tuyg‘usi, Vatan sog‘inchi, uyga qaytish umidi uni eng

---

<sup>1</sup> Sh.M.Mirziyoyev-Erkin Va Farovon Demokratik O‘zbekiston Davlatini Birgalikda Barpo Etamiz, -T.: 2016.

so‘nggi kungacha tark etmadi. Umrining shomida eng qayg‘uli va mahzun satrlarni bitdi:

*Tole’ yo ‘qi jonimg‘a balolig‘ bo ‘ldi,  
Har ishniki ayladim, xatolig‘ bo ‘ldi  
O‘z yerni qo ‘yub, Hind sori yuzlandim,  
Yorab, netayin, ne yuz qarolig‘ bo ‘ldi. ”*

Mustaqil O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimov Vatan haqida shunday degan: “Biz kelajak yoshlarniki, degan gapni ko‘p aytamiz. Kelgusi nasllarga bizdan ozod va obod Vatan qolishini orzu qilib yashaymiz. Barcha ezgu ishlarimiz zamirida ana shu oljanob maqsad mujassam. Biz shu aziz diyorda nafaqat farzandlarimiz, balki nevara-chevaralarimiz, avlodlarimiz ham tinch-omon, farovon, baxtli-saodatli, ma’rifiy hayot kechirishini, O‘zbekiston degan yurt, o‘zbek degan nom dunyo turguncha turishini istaymiz”.<sup>2</sup>

Vatanni sevish, unga bo‘lgan mehru muhabbatni izhor qilish nafaqat shoir xalqi, balki insoniyat tarixidagi bosqinchi podshohlar ham buni his qilganlar. Napoleon Banopart Vatanidan yiroqda o‘lim to‘shagida yotar ekan: “Men o‘lsam yuragimni Frantsiyaga olib borib, dafn qilinglar!” degan so‘zları o‘z Vataniga bo‘lgan muhabbatidan dalolat beradi. Vatan tuyg’usi avloddan-avlodga vatanparvarlik qadriyatlari orqali o’tadi. Vatan tuyg’usi, bu boradagi insoniy fazilatlar esa ta’lim-tarbiya jarayonida shakllanadi, boyib, rivojlanib, avloddan-avlodga o’tadi. Shu sababli ham kishilarni vatanparvarlik ruhida voyaga yetkazish masalasi barcha davrlarda ham katta ahamiyat kasb etgan. Vatanparvarlik ham ma’naviyat, ham ichki ruhiy quvvatdir. O‘zbekiston o‘z mustaqilligiga erishgandan keyin yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga katta e’tibor berilayotganining sababi ham shundadir. Vatanparvarlik tuyg’usi deb atalsa ham unda chuqur aqliy, odob, iymon, e’tiqod mujassamlashadi. Bu e’tiqod esa halollik, poklik, sadoqat, fidoyilik, mehrmuruvatlilik, mehnatsevarlik, millatparvarlik, insonparvarlik, ijodiy tashabbuskorlik, ishbilarmonlik, tadbirkorlik, oilaparvarlik, adolatparvarlik singari fazilatlar yotadi.

---

<sup>2</sup> Karimov I. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot – pirovard maqsadimiz - Toshkent: O‘zbekiston, - T.: 2000.

Xulosa qilib shuni aytish mumkunki, ajdodlarimiz o‘z Vatanlarini turli-tuman tashqi va ichki yovlardan muhofaza qilish uchun tinmay harakat qilganlar, vatan dushman tomonidan egallab olingan taqdirda ham uning ozodligi uchun jon fido qilganlar. Jaloliddin Manguberdi, Zahiriddin Muhammad Bobur, Dukchi Eshon, Abdulla Qodiriy, Cho‘lpon, Usmon Nosir va yana ko‘plab siymolar buning yorqin timsolidir. Vatanga xizmat bu har bir insonning shiori bo‘lishi lozim. Ana shundagina mazkur buyuk ajdodlarimizga loyiq avlod bo‘lishimiz va ular oldidagi ma’naviy qarzimizni uzishimiz mumkin. Hammamiz Vatan oldida qarzdormiz. Vatanga muhabbat tuyg‘usini fazandlarimiz qalbida go‘dakliklaridanoq shakllantirishimiz ayni muddaodir. Kelajak avlod vatanparvarlik hissida ulg‘aysa, Vatanimiz albatta gullab, yashnayjak.

### Foydalanaligan Adabiyotlar

1. Sh.M.Mirziyoyev-Erkin Va Farovon Demokratik O‘zbekiston Davlatini Birgalikda Barpo Etamiz, -T.: 2016.
2. Shavkat Mirziyoyev “Yangi O‘zbekistonda Erkin Va Farovon Yashaylik” –T.: 2023.
3. Karimov I. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot – pirovard maqsadimiz - Toshkent: O‘zbekiston, - T.: 2000.
4. Mirziyoyev Sh. Oltiariq tumani Farg‘ona viloyati faollari, mutasaddi rahbarlar bilan bo‘lgan uchrashuvidanagi nutqi.
5. Odilxon qori Yunusxon o‘g‘li. “Betakrorimsan, yagonasan, ona Vatanim - O‘zbekistonim!” –T.: 2013.